

**QISHLOQ XO'JALIGI TA'LIMIDA INGLIZ TILI O'QITILISHINING
NAZARIY ASOSLARI: SOHA TERMINOLOGIYASINING SHAKLLANISHI VA
ILMIY-FAN RIVOJIDAGI O'RNI.**

Suyarova Shaxnoza Toyloqovna

Toshkent davlat agrar universiteti, "Xorijiy tillar" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur matnda jahon tajribasida qishloq xo'jaligi ta'limida ingliz tilini o'qitishning asosiy yondashuvlari — ESP (English for Specific Purposes) va CLIL (Content and Language Integrated Learning) ning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda ularning agrar ta'limdagi o'rni ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. ESP yondashuvining kasbiy ehtiyojlarga yo'naltirilganligi, sohaviy terminologiya va amaliy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati asoslab berilgan. CLIL yondashuvi orqali fan va tilni integratsiyalashgan holda o'qitish, talabalarning kasbiy va lingvistik kompetensiyalarini parallel rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, terminologiyaning ilmiy-fan taraqqiyotidagi o'rni, soha terminlarining shakllanish omillari hamda ularni ingliz tilida o'rganishning qishloq xo'jaligi ta'limi uchun ahamiyati xorijiy va mahalliy olimlar qarashlari asosida ochib berilgan. Matnda terminologiyani tizimli o'rgatish agrar talabalarning ingliz tilida muloqot qilish va ilmiy axborotlardan samarali foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishning muhim omili ekanligi xulosalangan.*

Kalit so'zlar: *Qishloq xo'jaligi ta'limi, ingliz tilini o'qitish, ESP yondashuvi, CLIL yondashuvi, kasbiy kompetensiya, soha terminologiyasi, ilmiy muloqot, integratsiyalashgan ta'lim, agrar terminlar, xalqaro tajriba.*

Annotation: *This paper examines the main approaches used in global practice for teaching English in agricultural education—ESP (English for Specific Purposes) and CLIL (Content and Language Integrated Learning)—highlighting their formation, stages of development, and role in agrarian education from a theoretical and scholarly perspective. The study substantiates the importance of the ESP approach in addressing professional needs and in developing field-specific terminology and practical communication skills. It also analyzes the potential of the CLIL approach to integrate subject content and language instruction, enabling the parallel development of students' professional and linguistic competences. In addition, the paper explores the role of terminology in the advancement of science, the factors influencing the formation of domain-specific terms, and the significance of learning such terminology in English for agricultural education, based on the views of both international and national scholars. The study concludes that systematic instruction and practical application of terminology are crucial factors in enhancing agricultural students ability to communicate in English and to effectively use scientific information.*

Keywords: *Agricultural education, English language teaching, ESP approach, CLIL approach, professional competence, field-specific terminology, scientific communication, integrated education, agricultural terminology, international experience.*

Jahon tajribasida qishloq xo'jaligi ta'limida ingliz tilini o'qitish asosan **ESP** (English for Specific Purposes) va **CLIL** (Content and Language Integrated Learning) yondashuvlari orqali amalga oshiriladi.

ESP (English for Specific Purposes) yondashuvi XX asrning 1960–1970-yillarida paydo bo'lgan. ESP yondashuvi Ikkinchi jahon urushidan keyin, ayniqsa 1960-yillardan boshlab, ilm-fan, texnika, iqtisodiyot va qishloq xo'jaligi sohalarining jadal rivojlanishi davrida shakllangan. Bu davrda ingliz tili xalqaro ilmiy va kasbiy muloqot tili sifatida mustahkamlandi.

ESP yondashuvi quyidagi ehtiyojlar tufayli vujudga kelgan:

- mutaxassislarning ingliz tilini umumiy emas, balki kasbiy maqsadlarda o'rganishga bo'lgan talabi ortgani;
- qishloq xo'jaligi sohasida xalqaro tadqiqotlar, ilmiy maqolalar va texnologiyalar asosan ingliz tilida chop etila boshlagani;
- agrar mutaxassislarning sohaviy terminologiya, kasbiy matnlar va amaliy muloqot ko'nikmalariga ehtiyoji kuchaygani;
- ta'lim samaradorligini oshirish uchun tilni talabaning kasbiy ehtiyojlariga moslashtirib o'qitish zarurati paydo bo'lgani.

Shu sababli, jahon tajribasida qishloq xo'jaligi ta'limida ingliz tili ESP yondashuvi asosida o'qitilib, talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qila boshladi.

Hutchinson va Waters ta'kidlaganidek, ESP yo'nalishida til o'qitish talabalarning kasbiy ehtiyojlariga moslashtirilishi lozim bo'lib, agrar ta'limda bu yondashuv sohaviy terminologiya, ilmiy matnlar va xalqaro kommunikatsiya ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

CLIL (Content and Language Integrated Learning) yondashuvi XX asrning 1990-yillarida Yevropada paydo bo'lgan. CLIL atamasi va yondashuvi 1994-yilda Devid Marsh tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. U Yevropa Ittifoqida ko'p tillilik siyosatini rivojlantirish va fanlarni chet tilida o'qitish tajribalarini umumlashtirish jarayonida shakllangan.

CLIL yondashuvi quyidagi ehtiyojlar asosida yuzaga kelgan:

- ingliz tilini alohida fan sifatida emas, balki kasbiy fanlar bilan интеграцияда o'qitish zarurati;
- qishloq xo'jaligi ta'limida fan mazmunini saqlagan holda chet til kompetensiyasini parallel rivojlantirish ehtiyoji;
- agrar talabalarning xalqaro loyihalar, ilmiy tadqiqotlar va akademik mobillikda ishtirokini kengaytirish zarurati;
- ilmiy-innovatsion axborot va zamonaviy agrar texnologiyalarning asosan ingliz tilida taqdim etilishi.

Natijada, jahon tajribasida qishloq xo'jaligi ta'limida CLIL yondashuvi fan va tilni birgalikda o'qitish orqali talabalarining kasbiy va lingvistik kompetensiyalarini samarali rivojlantirish vositasi sifatida keng qo'llanila бошлади.

Coyle, Hood va Marsh ishlarida CLIL usuli qishloq xo'jaligi fanlarini ingliz tilida o'qitish orqali ham fan, ham til kompetensiyalarini bir vaqtning o'zida rivojlantirish imkonini berishi isbotlangan. Xalqaro tadqiqotlarda bu usul agrar talabalarining ilmiy maqolalar bilan ishlash, innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish salohiyatini oshirishi qayd etilgan.

O'zbekiston olimlari tadqiqotlarida esa ingliz tilini kasbiy yo'naltirib o'qitish masalasi alohida e'tiborda. J. Jalolov ta'lim nazariyasiga ko'ra, oliy ta'lim muassasalarida, jumladan agrar yo'nalishlarda, ingliz tilini o'qitish kommunikativ va kasbiy kompetensiyalarni integratsiyalash asosida tashkil etilishi lozim. Shuningdek, mahalliy tadqiqotlarda agrar sohadagi ingliz tili darslarida autentik matnlar, sohaviy keyslar va xalqaro tajribani o'rganish muhimligi ta'kidlanadi.

Soha terminologiyasining shakllanishi va ilmiy-fan rivojida o'rni

Terminologiya — bu har bir fan va kasb sohasi uchun maxsus leksik birliklar tizimi bo'lib, murakkab ilmiy va texnik tushunchalarni aniq, qisqa va birma-ma'noli ifodalashga xizmat qiladi.

Tilshunoslik nazariyasi nuqtai nazaridan, terminologiya nafaqat fan tili, balki ilmiy-amaliy jarayonlarni tartibga soluvchi vosita sifatida qaraladi. Eugene Wüster va Avro-nemis maktabi olimlari terminologiyani tizimli tahlil qilish, terminosistema tuzish va terminlarning semantik qatlamini aniqlash orqali terminologiyaning nazariy asoslarini yaratganlar. Wüsterning ta'kidlashicha, terminologiya mustaqil ilmiy yo'nalish bo'lib, u faqat leksik birliklarni emas, balki ularning funksional va struktural jihatlarini ham o'rganadi (Wüster, 1979).

Xorijiy terminologiya tadqiqotchilari, xususan J. Sager va A. Wright, terminologiyani amaliy boshqarish, lug'atlar yaratish va xalqaro standartlar asosida normativlashtirish metodlarini ishlab chiqqanlar. Ularning ishlari ko'p tarmoqli fanlar, jumladan qishloq xo'jaligi sohasida terminlarni egallash va ingliz tilida ilmiy muloqot qilish imkonini kengaytiradi (Sager, 1990; Wright, 2001). Shu bilan birga, terminologiyaning xalqaro miqyosdagi integratsiyasi, masalan FAO va CGIAR tomonidan ishlab chiqilgan qishloq xo'jaligi terminlari, global ilmiy hamjamiyat bilan samarali aloqani ta'minlaydi.

O'zbekiston tilshunos olimlari ham terminologiyaning ilmiy-fan rivojida o'rnini keng tadqiq qilganlar. Mamatova N.A. "Terminologiyani ilmiy-nazariy va metodologik asoslari" asarida terminologiyaning fan taraqqiyotida o'rni, terminosistema tuzilishi va termin yaratish metodlari batafsil yoritilgan. Unga ko'ra, terminologiya faqat leksik birliklar majmuasi emas, balki soha bilimlarini tizimlashtirish va ularni o'rgatish vositasidir (Mamatova, 2018). Hasanova N.X. esa "O'zbek tilida terminologiya va neologizmlar" asarida globalizatsiya sharoitida qishloq xo'jaligi sohasida yangi atamalar paydo bo'lishi,

ularning morfologik va semantik xususiyatlari, shuningdek, ularni ingliz tiliga tarjima qilishning metodik masalalarini tahlil qilgan (Hasanova, 2020).

Qishloq xo'jaligi sohasida terminologiyani shakllanishi uch asosiy omilga bog'liq: birinchidan, fan va texnologiyani rivoj natijasida yuzaga keladigan yangi tushunchalar; ikkinchidan, amaliy ishlar, ishlab chiqarish jarayonlari va agrar texnologiyalardagi innovatsiyalar; uchinchidan, xalqaro ilmiy manbalar va ingliz tilidagi adabiyotlar orqali terminlarning boyishi. Masalan, agronomiya va melioratsiya sohasida "crop rotation" (ekin navlarini almashlab ekish), "irrigation system" (suv ta'minoti tizimi), "pest management" (zararkunandalarga qarshi kurash) kabi atamalar fan rivojida yangi texnologiyalar bilan birga paydo bo'lgan.

Ilmiy-fan rivojida terminologiyani o'rni beqiyosdir. Terminlar yordamida talabalar va mutaxassislar murakkab jarayonlarni qisqa va aniq ifodalash imkoniga ega bo'ladilar. Shu bilan birga, soha terminlari xalqaro ilmiy hamjamiyat bilan samarali muloqot qilish, tadqiqot natijalarini global kontekstdagi standartlarga muvofiq taqdim etish uchun asos bo'ladi. Ingliz tilida soha terminlarini egallash esa qishloq xo'jaligi talabalar uchun ikki tomonlama foyda keltiradi: bir tomondan, ular o'z kasbiy bilimlarini rivojlantiradi, ikkinchi tomondan, global ilmiy ma'lumot manbalaridan foydalanish imkoniga ega bo'ladilar.

Shu nuqtai nazardan, terminologiyani tizimli ravishda o'rgatish va amaliy mashg'ulotlarda qo'llash qishloq xo'jaligi ta'limida ingliz tilida gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Talabalar terminlarni kontekstga mos ravishda o'rganish orqali nafaqat ularni yodlab qolish, balki muloqotda va ilmiy ishda to'g'ri ishlatishni ham o'rganadilar, bu esa fan va til taraqqiyoti o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni kuchaytiradi.

Manbalar:

1. Hutchinson, T., & Waters, A. (1987). *English for Specific Purposes: A Learning-Centred Approach*. Cambridge University Press.
2. Dudley-Evans, T., & St John, M. J. (1998). *Developments in English for Specific Purposes*. Cambridge University Press.
3. Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. (2010). *CLIL: Content and Language Integrated Learning*. Cambridge University Press.
4. Anthony, L. (1997). *ESP: What does it mean? Why is it different?* ON-CUE Journal, 5(3).
5. Wüster, E. (1979). *Introduction to Terminology*. Vienna: TermNet.
6. Sager, J. (1990). *A Practical Course in Terminology Management*. Amsterdam: John Benjamins.
7. Wright, A. (2001). *Terminology: Standardization and Management*. London: Routledge.
8. Jalolov, J. J. (2012). *Chet tillarni o'qitish metodikasi*. Toshkent: O'qituvchi.

9. Qodirov, I. A. (2016). *Kasbiy yo 'naltirilgan chet til ta 'limi asoslari*. Toshkent.
10. Karimov, Sh. S. (2020). Qishloq xo'jaligi yo'nalishida ingliz tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv. *O'zbekiston oliy ta 'limi muammolari* jurnali.
11. Mamatova, N.A. (2018). *Terminologiyani ilmiy-nazariy va metodologik asoslari*. Tashkent: Fan.
12. Hasanova, N.X. (2020). *O'zbek tilida terminologiya va neologizmlar*. Tashkent: UzLingua.
13. FAO. (2023). *FAO Terminology Resources*. Rome: FAO.
14. CGIAR. (2022). *Agricultural Glossary and Standards*.